O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI»

MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

(III QISM)



SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

TAMBOV DAVLAT UNIVERSITETI

QARSHI MUXANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI

«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(III QISM)

2026-yil 20-21-fevral kunlari

SAMARQAND – 2026

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАТSIЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

ТАМБОВСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»

САМАРКАНДСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

“НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЕНОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ”

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

(ЧАСТЬ III)

(20-21-февраль 2026 г.)

САМАРКАНД – 2026

себестоимость реализованной продукции рассчитывается на базе фактических учетных данных, а не расчетных оценок, полученных по итогам отчетного периода.

Особое значение системы непрерывного складского учета приобретают в контексте управленческого анализа и принятия управленческих решений. Оперативная информация о состоянии запасов, их структуре и оборачиваемости позволяет оптимизировать складские остатки, снижать издержки хранения и предотвращать образование неликвидных ресурсов. Таким образом, непрерывный учет выходит за рамки исключительно бухгалтерской функции и становится элементом стратегического управления организацией.

Список литературы:

1. Ковалёв В. В. Финансовый учет и анализ: концептуальные основы. - М.: Финансы и статистика, 2016. - 512 с.
2. Палий В. Ф. Бухгалтерский учет, анализ и аудит. - М.: ИНФРА-М, 2019. - 448 с.
3. Drury C. Management and Cost Accounting. - Boston: Cengage Learning, 2017. - 896 p.
4. IFRS Foundation. International Accounting Standard IAS 2 “Inventories”. - London, 2023.

Urazov Komil Baxramovich *– SamISI boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi i.f.d., professori*

Abdurasulov Jamshidbek Axmad o‘g‘li *– SamISI tayanch doktoranti ORCID: 0000-0003-1630-8694*

QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOT METODOLOGIYASI

Annotatsiya. *Maqolada korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tahlil qilingan. Biznes birlashuvlari shakllarida aktivlar, majburiyatlar va kapitalni tan olish hamda baholash tartiblari yoritilgan. Shuningdek, MHXS va milliy standartlar o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinib, ularni uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *qayta tashkil etish, biznes birlashuvlari, MHXS, gudvill, adolatli qiymat, konsolidatsiya.*

Аннотация. *В статье исследованы вопросы отражения процессов реорганизации предприятий в бухгалтерском учёте на основе требований международных стандартов финансовой отчётности. Рассмотрены порядок признания и оценки активов, обязательств и собственного капитала в условиях объединений бизнеса. Проведён сравнительный анализ международных и национальных стандартов бухгалтерского учёта, а также разработаны научно-практические рекомендации по гармонизации национальной практики с МСФО.*

Ключевые слова: *реорганизация предприятий, объединения бизнеса, международные стандарты финансовой отчётности, гудвилл, справедливая стоимость, консолидация.*

Abstract. *This article examines the accounting treatment of corporate reorganization processes in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). The recognition and measurement of assets, liabilities, and equity in business combinations are analyzed. A comparative analysis of international and national accounting standards is conducted, and scientific and practical recommendations for harmonizing national accounting practices with IFRS are proposed.*

Keywords: *corporate reorganization, business combinations, International Financial Reporting Standards (IFRS), goodwill, fair value, consolidation.*

Jahonda korxonalar milliy iqtisodiyotning asosiy institutsional birliklari sifatida iqtisodiy resurslarni birlashtirish, qiymat yaratish va qo‘shilgan qiymatni shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ular ishlab chiqarish, investitsiya va innovatsiya jarayonlarining asosiy tashuvchilari bo‘lib, yashil texnologiyalar, energiya samaradorligi va raqamli yechimlarni joriy etish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyati faqat iqtisodiy samaradorlik bilan cheklanib qolmasdan, ekologik mas’uliyat va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, korxonalarning tashkiliy-huquqiy tuzilmasi, korporativ boshqaruv mexanizmi va resurslardan foydalanish modeli ularning raqobatbardoshligi hamda bozorda uzoq muddatli barqaror faoliyat yuritish imkoniyatlarini belgilab beradi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida korxonalarni qayta tashkil etish, yiriklashtirish va klaster hamda korporativ birlashmalar shaklida rivojlantirish ishlab chiqarish zanjirlarining integratsiyalashuvini ta’minlab, innovatsion va eksportbop mahsulotlar ulushini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuv resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, kapital aylanmasini tezlashtirish hamda yashil iqtisodiyot talablariga mos iqtisodiy modellarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar, xususan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bozor munosabatlariga mos, innovatsion va ekologik barqaror korxonalarni tashkil etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar orqali korxonalar faoliyatini tartibga solish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish va raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlashning huquqiy-iqtisodiy asoslari yaratildi. Shu munosabat bilan mazkur maqolada korxonalarning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, ularni qayta tashkil etish va boshqarish jarayonlarining samaradorligi hamda yashil iqtisodiyot va raqamli rivojlanish sharoitida ularni takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tadqiq etiladi.

Natijada mamlakatda turli mulk shakli va yuridik maqomga ega bo‘lgan korxonalar tizimi yaratildi. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlari (AJ), mas’uliyati cheklangan jamiyatlar (MCHJ), xususiy korxonalar (XK), xorijiy investitsiyalar

ishtirokidagi korxonalar (XIIK), qo‘shma korxonalar (QK), davlat unitar korxonalari (DUK), oilaviy korxonalar (OK), fermer va dehqon xo‘jaliklari (FX, DX), davlat sherikchilik asosidagi korxonalar (DSHK) hamda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) iqtisodiy faoliyatning mustaqil sub’ektlari sifatida faoliyat yuritmoqda. Mamlakatda iqtisodiy tizimning institutsional diversifikatsiyasi va mulkchilik shakllarining xilma-xilligi bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining shakllanishi, raqobat muhitining rivojlanishi hamda resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu jarayon iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Oxirgi yillarda O‘zbekistondagi iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari ham ana shu islohotlarning amaliy samarasini tasdiqlamoqda. 2025 yil 1 iyun holatiga ko‘ra, mamlakatda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar-soni taxminan 454,9 mingtani tashkil etmoqda, shulardan 385,7 mingtasi yoki 84,8 foizi kichik biznes va mikrofirmalardir. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi 2025 yilning yanvar–sentyabr oylari holatiga 51,5 foizga yetgan. Bu ko‘rsatkich 2023 yilda 51,2 foiz bo‘lgani e’tiborga olinsa, kichik biznesning iqtisodiyotdagi salmog‘i yil sayin ortib borayotgani namoyon bo‘ladi[55]. Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni ham barqaror o‘sib bormoqda. 2025 yil 1 mart holatiga ko‘ra, mamlakatda 15 503 ta xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu holat O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyalanish darajasi o‘sib borayotganini, xorijiy kapital ishtirokidagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari kengayib, xalqaro korporativ hamkorlik kuchayganini ko‘rsatadi[56].

Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yil 1 noyabr holatiga mamlakatda faoliyat yurituvchi korxonalar va tashkilotlar-soni 465,9 mingtani tashkil etgan, shulardan 84,9 foizi kichik biznes va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, 2025 yil 1 iyul holatiga ko‘ra faol kichik biznes sub’ektlari, mikrofirmalar va fermer xo‘jaliklari-soni 1 million 200 mingdan oshib ketgan. Bu ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotida kichik tadbirkorlikning ustuvor o‘rin egallayotganini, ularning yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi barqaror o‘sib borayotganini ko‘rsatadi[57]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning Bundan tashqari, mamlakatdagi oilaviy korxonalar-soni 2025 yil 1 avgust holatiga 37,8 mingtani tashkil etgan va yil boshidan 1,5 mingtaga ko‘paygan. Shu bilan birga, 11 mingdan ortiq xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona (XIIK), 1400 ga yaqin davlat unitar korxonasi (DUK) hamda 10,5 mingga yaqin nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) faoliyat yuritmoqda. Bu raqamlar O‘zbekistondagi iqtisodiy sub’ektlar tarkibining institutsional

[55] https://stat.uz/uz/
[56] https://stat.uz/uz/
[57] https://stat.uz/uz/

diversifikatsiyalanganini va xususiy hamda davlat sektori faoliyati o‘rtasidagi muvozanat saqlanayotganini ko‘rsatadi[58].

Fikrimizcha, bunday ko‘lamdagi o‘sish va turli mulk shakllarining mavjudligi iqtisodiy tizimning barqarorligi, bozor muhitining erkinligi va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Kichik biznes va mikrofirmalar mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko‘paytirish va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishda yetakchi rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, oilaviy korxonalar va NNTlar ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, mahalliy tashabbuslarni qo‘llab quvvatlash va kichik hududlarda iqtisodiy faollikni kengaytirishga katta hissa qo‘shmoqda. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar-sonining ortishi milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiya jarayonlariga faol jalb etilganini ko‘rsatadi. Ushbu korxonalar orqali ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv tajribasi va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish sohasiga kirib kelmoqda. Bu esa eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish zanjirlarini modernizatsiya etish va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, davlat unitar korxonalari (DUK) va aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) strategik sohalar energetika, kimyo, transport va infratuzilmadagi faoliyat orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular orqali davlat mulkini samarali boshqarish va milliy iqtisodiyotning barqarorligi kafolatlanmoqda.

Shu sababli, korxonalarni qayta tashkil etish sharoitida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni shakllantirish jarayonida maxsus mezonlar, qoidalar va xalqaro standartlarga asoslangan talablarga rioya etish zarur. Bu talablar moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligi, hisob ma’lumotlarining qiyoslanuvchanligi hamda hisobotning xalqaro miqyosda tan olinishi uchun asos bo‘ladi. Mazkur mezonlar va talablar xalqaro amaliyotda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tizimi orqali belgilangan bo‘lib, xususan:

- 3-sonli MHXS “Biznes birlashuvlari”,
- 10-sonli MHXS“Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” standarti qayta tashkil etish va biznes birlashuvlari jarayonlarida hisob va hisobotni yuritishning umumiy xalqaro qoidalarini belgilaydi.

Shuningdek, milliy qonunchilik va milliy hisob tizimi doirasida bu talablar O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) orqali joriy etilgan. Jumladan:

- 23-son BHMS “Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish”,
- 8-son BHMS “Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va sho‘‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar” bilan bevosita bog‘liq hisob va hisobot qoidalari belgilangan.

Xalqaro standartlar talablariga muvofiq ravishda qayta tashkil etish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish korxonalarning haqiqiy moliyaviy

[58] https://stat.uz/uz/

holatini namoyon etish, hisobotning xalqaro solishtirilishi va investorlar uchun ishonchli axborot manbaini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun milliy amaliyotda xalqaro standartlar asosida qayta tashkil etish hisobining metodologiyasini chuqur tadqiq etish, unga mos hisob siyosati va usullarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, qayta tashkil etish jarayonlarini hisobga olish va ular bo‘yicha moliyaviy hisobotni shakllantirishda xalqaro standartlar talablariga amal etish juda muhimdir. Xususan, MHXS 3 “Biznes birlashuvlari”, MHXS 10 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” hamda BHXS 27 “Alohida moliyaviy hisobotlar” standartlari bunday operatsiyalarning metodologik asosini belgilab beradi. Ushbu standartlar korxonalarning birlashuvi yoki konsolidatsiyasi natijasida aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapitalni tan olish, baholash va hisobotda aks ettirish tartiblarini aniq belgilaydi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarini hisobda aks ettirishda farqli yondashuvlarga ega. MHXS 3 standarti “biznes birlashuvi” tushunchasini markazga qo‘yadi va hisobni yuritishni talab qiladi. Bu usulda aktiv va majburiyatlar adolatli qiymatda baholanadi, Gudvill tan olinadi va keyingi davrlarda amortizatsiya qilinmaydi, balki imperment test orqali baholanadi. MHXSda konsolidatsiyalash jarayoni MHXS 10 bilan tartibga solingan bo‘lib, u nazorat tamoyilini asos qilib oladi. Bu, o‘z navbatida, korxona boshqa sub’ekt ustidan moliyaviy va operatsion qarorlar qabul etish huquqiga egaligini anglatadi. Hozirgi kunda global iqtisodiy islohotlar sharoitida korxonalarni samarali boshqarish va ular faoliyatini shaffof hisobotlar orqali namoyon etish talablari ortib bormoqda. Shu jihatdan, korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarini hisob va hisobotda to‘g‘ri aks ettirish muhim ilmiy nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu borada xalqaro moliyaviy hisobot standartlari xususan, “Biznes birlashuvlari” (MHXS 3), “Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot” (MHXS 10) hamda milliy buxgalteriya hisob standartlari (BHMS 23, BHMS 8) asosiy me’yoriy manbalar hisoblanadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish sohasida bir qator muammolar aniqlandi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqildi. Bular:

Birinchidan, milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) bilan moliyaviy hisob xalqaro standartlari o‘rtasidagi metodologik farqlar hisobot axborotining ishonchliligi va qiyoslanuvchanligini cheklamoqda. Bu holatni bartaraf etish uchun milliy standartlarni MHXS 3 “Biznes birlashuvlari”, MHXS 10 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” va MHXS 13 “Adolatli qiymatni aniqlash” talablariga uyg‘unlashtirish, ya’ni milliy hisob siyosatini xalqaro konsepsiyalar asosida qayta ko‘rib chiqish zarur.

Ikkinchidan, gudvill va adolatli qiymat modelining milliy amaliyotda to‘liq joriy etilmaganligi biznes birlashuvlari natijasidagi haqiqiy iqtisodiy qiymatni to‘g‘ri ifoda etishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, MHXS 3 va BHXS 36 talablariga muvofiq gudvillni aktiv sifatida tan olish, uni mpeyriment test orqali

baholash va milliy standartlarda gudvillni hisoblash hamda tan olish mexanizmini aniq belgilash lozim.

Uchinchidan, qayta tashkil etish jarayonlarida hisob hujjatlari va moliyaviy ma’lumotlarning yagona elektron reestri mavjud emas. Bu esa qayta tashkil etishda qatnashuvchi sub’ektlar o‘rtasida axborot almashinuvini qiyinlashtirmoqda, hisob jarayonlarida ma’lumotlarning takrorlanishi va xatoliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, “Qayta tashkil etish jarayonlarining elektron yagona reestri”ni yaratish, unda korxonalarning moliyaviy hujjatlari, taqsimlash balanslari va hisobot ma’lumotlarini raqamli formatda saqlash va taqdim etish tizimini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi. Bu hisobotlarda shaffoflikni ta’minlab, davlat organlari va investorlar uchun ishonchli axborot manbaini yaratadi.

To‘rtinchidan, qayta tashkil etish jarayonlarida moliyaviy hisobotlarning ichki va tashqi auditini kuchaytirish zarur. Amalda ayrim korxonalarda qayta tashkil etish bilan bog‘liq moliyaviy ma’lumotlar tekshiruvsiz taqdim etilayotgani natijasida hisobotlarda xatoliklar va turlicha talqinlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, qayta tashkil etilayotgan korxonalar uchun majburiy audit tizimini joriy etish, audit hisobotlarini esa ochiq elektron reestr orqali e’lon etish taklif etiladi. Bu hisobotlarning ishonch darajasini oshiradi, moliyaviy ma’lumotlarning haqqoniyligini ta’minlaydi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Beshinchidan, moliyaviy hisobotlarda axborot oshkorligining yetarli darajada ta’minlanmaganligi tashqi foydalanuvchilar va investorlar ishonchini kamaytirmoqda. Shu sababli, xalqaro standartlarda belgilangan axborot oshkoraligi va shaffofligi talablarini milliy hisob tizimiga to‘liq joriy etish, qayta tashkil etish jarayonlari to‘g‘risidagi barcha moliyaviy ma’lumotlarni ochiq va tadqiqiy shaklda taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, milliy buxgalteriya hisob tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, adolatli qiymat va gudvill modelini amaliyotga joriy etish, konsolidatsiyalashgan hisobotni to‘liq qo‘llash, ichki va tashqi auditni kuchaytirish hamda axborot shaffofligini ta’minlash orqali qayta tashkil etish jarayonlarida hisobotning ishonchliligi va xalqaro qiyoslanuvchanligi ta’minlanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni kuchaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ–4611-son qarori «Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son farmoni «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».
3. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2016 (yangi tahrir).

4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS / MHXS). – London: IFRS Foundation, amaldagi nashr.
5. IFRS 3 – Business Combinations (MHXS 3 «Biznes birlashuvlari»). – IFRS Foundation.
6. IFRS 10 – Consolidated Financial Statements (MHXS 10 «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot»). – IFRS Foundation.
7. IFRS 13 – Fair Value Measurement (MHXS 13 «Adolatli qiymatni aniqlash»). – IFRS Foundation.
8. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari: BHMS 23 – «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish».
BHMS 8 – «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va sho‘’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar».
9. Plotnikov V.S., Plotnikova O.V. Ob’edineniye biznesa i konsolidirovannaya finansovaya otchetnost. – Moskva: Finansi i statistika, 2019.
10. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobot: nazariya va metodologiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
11. Urazov K.B. Moliyaviy buxgalteriya hisobi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
12. Deegan C. Financial Accounting Theory. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.
13. Gray R., Adams C., Owen D. Accounting and Accountability: Social and Environmental Accounting. – London: Routledge, 2019.
14. World Bank. Green Growth and Sustainable Development Report. – Washington, DC, 2022.
15. UNDP. Green Economy and Sustainable Development Goals. – New York, 2021.
16. Abdurasulov J.A. Korxonalarda qayta tashkil etish jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand, 2024.

U.A.Shirinov – *SamISI dotsent*

XARAJATLAR VA DAROMADLARNI SEGMENTLAR KESIMIDA TO‘G‘RI GURUHLASH VA AJRATISH METODIKASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xarajatlar va daromadlarni segmentlar bo'yicha to'g'ri guruhlash va ajratish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi va segment hisoboti 8-son MHXS standartlari va boshqaruv hisoboti talablari kontekstida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *segment hisoboti, xarajatlarni taqsimlash, to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar, bilvosita xarajatlar, ABC metodikasi, segment rentabelligi, moliyaviy tahlil, boshqaruv hisoboti.*

Аннотация: *В данной статье анализируется методология корректной группировки и распределения затрат и доходов по сегментам с научной, теоретической*

Тўлқин Исматулло ўғли Яхяев		
Сысоева Маргарита Сергеевна, Борисова Полина Сергеевна	МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ КОМПАНИЕЙ НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ	201
Уразов Комил Бахрамович, Умарова Шахноза Келдиёр қизи	КОРХОНАЛАР МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАРНИ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ШАКЛЛАРИДА АКС ЭТТИРИШ ВА ОЧИҚЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	209
Рафеев Д.Р., Усмонова Н.У.	СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО СКЛАДСКОГО УЧЕТА	214
Urazov Komil Baxramovich, Abdurasulov Jamshidbek Axmad o‘g‘li	QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOT METODOLOGIYASI	218
U.A.Shirinov	XARAJATLAR VA DAROMADLARNI SEGMENTLAR KESIMIDA TO‘G‘RI GURUHLASH VA AJRATISH METODIKASI	224
Raximov Xoshim Amirkulovich	SUG‘URTA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA XARAJATLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFI	230
Urazov Komil Baxramovich, Raximov Xoshim Amirkulovich	BIRGALIKDA SUG‘URTA OPERATSIYALARI VA QAYTA SUG‘URTA BO‘YICHA XARAJATLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	236
Юлдашова Н.З.	ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ЗА СЧЁТ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	241
Shaynazarov Ravshan Mamayusubovich	MINTAQADA CHAKANA SAVDO AYLANMASIGA IMPORT MAHSULOTLAR HAJMINING TA’SIRINI KO’P OMILLI REGRESSIYA MODELI ASOSIDA BAHOLASH	246
	ASSESSMENT OF THE DEVELOPMENT OF THE PROCESSING	251